KOSHG‘ARIY DEVONINING AHAMIYATI

Botirova O‘g‘iloy Yadigorovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistri

Email: ugiloybotirova9@gmail.com

Telefon raqam: +99893-536-19-01

Annotatsiya: «Devon» dagi har bir so‘z izohi, shu munosabat bilan keltirilgan afsona,rivoyat, maqol va she‘riy parchalardagi mazmunga, shaklga, ishoralarga daqiqnazarona qarab, xalqimiz o‘tmishiga daxldor tarixiy asarlar mag‘zini chaqish va shu asosda yangi-yangi tadqiqotlarni bajarish davr taqozosiga aylanmoqda.

Kalit so‘zlar: Koshg‘ariy, «Devonu lug‘otit turk», “Devon”ning o‘rganilishi, lug‘at.

Jahonda «Devonu lug‘otit turk»ning yagona nusxasi mavjud bo‘lib, u Turkiyaning Istanbul shahridagi kutubxonada saqlanadi.Muallifning guvohlik berishicha «Devon» kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy tomonidan Mahmud Koshg‘ariy dastxatidan hijriy 1265-66-yillarda ko‘chirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Mahmud Koshg‘ariyning «Javohirun – nahv fi lug‘otit turk» («Turkiy tillarning nahv (sintaksis) durdonalari (aniqrog‘i, qoidalari) «) deb nomlanuvchi yana bir asari bo‘lgan, ammo bu asari bizgacha yetib kelmagan.

«Devonu lug‘otit turk» asarining yagona qo‘lyozmasini 1915-1917-yillarda Kilisli Ahmad Rif’at Istanbuldagi Omira matbaasida uch jildda chop etgan. Asarning aynan shu nashri uning nemis, turk, o‘zbek, uyg‘ur, qozoq va fors tillarga tarjimalari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.Yurtimizda bu nodir durdona, topilmas asarning uch tomligi nashr etilgan bo‘lib, bugungi kunda “Devon”ning o‘rganilishi uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, shu kungacha «Devon»ning poetikasi yuzasidan yurtimizda va xorijda quyidagi olimlar izlanish olib borganlar: H.Dadaboyev, I.V.Stebleva, A.Xayitmetov. Jumladan, prof.U.T.Tursunov «Turkologiyaning to‘ng‘ich asari», E.Fozilov «Mahmud Qoshg‘ariy va uning «Devon”i», F.Abdullayev “Devonu lug‘otit turk»asarida o‘g‘uz komponentining o‘rni masalasi», Iqbol Mirzo «Devonu lug‘otit turk» asarining xalqaro miqyosda o‘rganilishi», H.Berdiyev «Devonu lug‘otit turk» asaridagi she’riy parchalarda solesizm hodisasi» hamda H.Berdiyev va D.Rajabovlarning «Devoni lug‘otit turk»dagi she’riy parchalarda qofiya» monografiyasi ham shu silsilani to‘ldiruvchi tadqiqotdir.

O‘zbekistonda «Devonu lug‘otit turk» bilan birinchi bo‘lib qiziqqan Abdurauf Fitrat bo‘ldi. Keyinchalik o‘zbek adabiyotshunosi A.Abdurahmonov ham bu borada samarali mehnat qildi.

Mahmud Koshg‘ariyning qomusiy asari “Devonu lug‘otit turk”dagi materiallarning ko‘lami keng. Ularda she’riy parchalarning janriy xususiyatlari, badiiyati, ayrim adabiyotshunoslik terminlari tahlili kabi masalalar yoritib berilgan. Biroq asardagi she’riy parchalar muayyan so‘z izohi uchun keltirilgan bo‘lib, bu jarayon lingvistik va poetik jihatdan yondashishni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, she’riy materiallarning o‘rganilish, yo‘nalish va tamoyillarini aniqlashtirgan holda, ularning lingvistik xususiyatlarini ham tahlil etish muhim hisoblanadi.

“Devonu lug‘otit turk” asari qomusiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega filologik manba hisoblanadi. Unda keltirilgan har bir misol tarixiy, ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan alohida ahamiyatga ega.

«Devonu lug‘otit turk» muqaddima, sakkiz bo‘lim va xulosadan iborat bo‘lib, muqaddimada «Devon»ning yaratilish sabablari, buning uchun ko‘p yillar tayyorgarlik ko‘rib ma’lumot yig‘ganligi, «Devon» tarkibi va unda turkcha so‘zlarning berilish tartibi haqida ma’lumot beriladi.«Devonu lug‘otit turk»ning asosini uning sakkiz bo‘limi tashkil etadi. Undagi har bir bo‘limda ot-ism va fe’l so‘z

turkumlariga mansub turkiy so‘z va iboralar izohi berib borilgan. Butun «Devon»da bu xilda izohlangan so‘z va iboralar miqdori 7500 tadan oshiq. M.Imomnazarov e’tiroficha: «Devonu lug‘otit turk»ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo‘lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbati o‘rtacha adabiy tildagi 10-12 so‘zga, shevaga oid bir so‘zga teng keladi. Ya’ni umumturkiy adabiy tilga ayricha ahamiyat ajratilgan. Bu holat o‘sha davr islom mintaqasida turkiy adabiy til ancha keng tarqalgani va mustahkam mavqega ega bo‘lganini tasdiqlovchi qat’iy dalildir. Lug‘atda yuzlab kishi ismlari, shahar va qishloq, o‘lka nomlari, daryo, tog‘, yaylov, vodiy, dala, yo‘l, dovon, ko‘l, soy kabi geografik atamalar, turli qabila, urug‘, elat, sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi. Unda izohlangan grammatik ko‘rsatkichlar, morfemalar hisobi ham mingga yaqin.Bugina emas, u shu turkiy so‘zlarning tuzilishi, qo‘llanishi, turkiy qabilalar va boshqa masalalar to‘g‘risida ham qimmatli dalillarni keltiradi.

Bundan tashqari ularning turkiy xalqlar she’rshunosligidagi yana bir qimmati – vazn xususiyatlari bilan belgilanadi. Prof.M.Imomnazarov e’tiroficha, «Devon»dagi «bayt»lar aslida islom madaniyatiga xos she’riyat namunalari sanaluvchi masnaviy, qasida, g‘azal va qit’a parchalari sanalishi mumkin. Zero, ularning aksariyati aruzning rajaz va ayrimlari ramal, munsarix,hazaj, basit va mutaqorib kabi bahrlarida bitilgan bo‘lib, asosan, arab istilosidan keyingi (VIII-IXasrlar) voqeligi bag‘rida yaratilgan, deyish mumkin.«Devon»dagi to‘rtliklar esa asosan, barmoq vaznida bo‘lib, ma‘lum namunalari, jumladan, Alp Er To‘ngani sharaflovchi to‘rtliklarning qay biri u hoqonlik qilgan miloddan avvalgi VIIasrda, boshqa biri undan keyinroq yaratilgan turkiy xalq poeziyasining keng tarqalgan qadimiy shakli ekanligini ko‘rsatib turibdi. Xuddi shu mulohaza asosida «Devon»dagi to‘rtliklar turkiy xalqlarning miloddan avvalgi VII asrdan miloddagi XI asrgacha yaratilgan va o‘sha davr ijtimoiy ruhini aks ettiradi, deyishga asos bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бердиев Ҳ. ва Д. Ражабовларнинг «Девони луғотит турк»даги шеърий парчаларда қофия». Монография. – Т, 2004.
2. Бердиев Ҳ. ва Ражабов Д. «Девони луғотит турк»даги шеърий парчаларда қофия». Монография. – Т, 2004.
3. Дадабоев Ҳ. «Девону луғатит турк»даги туркий тилларга хос фонетик ва лексик-семантик

4. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк), таржимон ва нашрга тайёрловчи .С.М. Муталлибов. 3 томлик. – Т, т. I, 1960; т. II, 1961; т. III, 1963.
5. Israilova, S. (2023). TARIXIY MANBALARDA RANGLAR TALQINI. MIRZO ULUG’BEK NOMIDAGI 0‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI.
6. Рустамий С. «Девону луғатит турк» даги лингивистик атамалар. – Т. 2006. – Б. 20.
7. Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – М., 1971.
хусусиятлар ҳақида//Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Т. 2008, - Б. 3-9.
8. Ҳайитметов А. О древней поэзии тюрков (по материалам «Девону луғатит турк» Махмуда Кашгари) // Советская тюркология, - Баку, 1972, № 1. С. 123-128. 9. Ruzimovna, K. G., & Xolmanova, Z. Formation and Development of Axiolinguistics. International Journal on Integrated Education, 3(9), 128-131.